Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tili o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari.....	675
Ergasheva Xilola Yunusxonovna	
Use of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language for Uzbekistan General Schools.....	679
Feruza Zokirova Adham qizi	
Efferent motor afaziya va uni bartaraf etish yo'llari.....	682
G'anieva Gulrux Tavakkaljon qizi	
O'quvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish: biologiya darslarida global ekologik muammolar tahlili.....	686
Ibragimova Sitara Akmal qizi	
Ba'zi 3D-metallarining 2-amino-5-allitio-1,3,4-tiadiazol bilan kompleks birikmalarini o'rganish	690
Jumaniyazova Gulxumar Karimbayevna	
Tizimli bilish kompetentligining mazmuni va uning maktabgacha ta'limdagi o'rni	696
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
O'qituvchilik mahorati va axloqiy madaniyatning mushtarakligi.....	700
Nabiyev Islom Karimovich	
Qarshi shahrida turizm menejerlarining kasbiy malakasini uzluksiz takomillashtirishni ta'minlash	706
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida moslashuvchan kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari....	710
Nuriddinova Diyora Isaqali qizi	
Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA BOLALAR O'YIN FOLKLORINI O'RGATISHDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK USULLARI VA TEXNOLOGIYALARI



Ro'ziboyeva Madina Salimovna
Farg'ona davlat universiteti
tayanch doktranti

ORCID: 0009-0009-9142-6245

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'zbek xalq o'yinlaridagi folklor namunalari o'rgatish masalasi yoritilgan. Xususan, o'quvchilarda tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan metodik usullar hamda ta'limiy texnologiyalar ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy meros asosida tashkil etilgan o'yinlar orqali o'quvchilarning ma'naviy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: folklor, maktab, o'quvchilar, milliy meros, o'zbek xalq bolalar o'yinlari, tolerantlik, metodik usul, texnologiya.

Abstract: This article explores the use of folklore elements from Uzbek children's traditional games in primary school education. The study analyzes methodological approaches and educational technologies aimed at fostering and developing tolerance among students. It also highlights the potential of promoting pupils' moral and social competencies through games based on national heritage.

Key words: folklore, school, pupils, national heritage, Uzbek children's folk games, tolerance, methodological approach, technology.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование образцов фольклора в узбекских народных играх при обучении младших школьников. Особое внимание уделено методическим приемам и образовательным технологиям, направленным на формирование и развитие толерантности у учащихся. В исследовании показаны возможности развития духовных и социальных компетенций школьников через игры, основанные на национальном наследии.

Ключевые слова: фольклор, школа, учащиеся, национальное наследие, узбекские детские народные игры, толерантность, методический приём, технология.

KIRISH

Zamonaviy dunyo siyosiy, ijtimoiy-madaniy va aksiologik xilma-xillik bilan ajralib turadi, bunda munosabatlarning ijobiy rivojlanishi va nizolarni keltirib chiqarish uchun ko'plab sabablar mavjud. To'qnashuvlar sonining ko'payishi, zo'ravonlik va terrorizmning tez-tez sodir bo'lishi yosh avlodlarda bag'rikenglikni tarbiyalash sohasida xalqaro hujjatlarning qabul qilinishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada ushbu mavzuni yoritishdan asosiy maqsad o'yin folklori orqali bolalarda bag'rikenglik munosabatini shakllantirishning pedagogik shartlarini ishlab chiqish va boshlang'ich sinflarda samarali tatbiq qilish usullarini takomillashtirishdan iborat. Bizning asosiy obyektimiz sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni belgilangan. Vazifamiz esa boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatish davomida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik nazariya va amaliyotdagi holatini o'rganish orqali uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashtirishdir. Predmetimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va omillarini o'rganishni tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatish orqali ularda tolerantlikni rivojlantirish mavzusida olib borilgan tadqiqotlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida xalq pedagogikasi, folklorshunoslik hamda psixologik-pedagogik adabiyotlar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mazkur adabiyotlarda bolalar o'yini nafaqat jismoniy faollikni oshiruvchi vosita, balki bolalar shaxsiyatini shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida ham ko'rilgan. Rus pedagog-psixologi Lev Vigotskiyning "Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste" (Moskva: Prosveshcheniye, 2004) asarida ko'rsatilishicha, bolalar o'yini bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ular ongida tolerant munosabatlarni shakllantirishga ham imkon yaratadi. Vigotskiy o'yin jarayonida bola atrofdagilarga empatiya ko'rsatishni o'rganishini va o'z xatti-harakatlarini boshqalarning xulq-atvoriga moslashtirish ko'nikmasini egallashini ta'kidlaydi.

O'zbek pedagogikasi va folklorshunosligi sohasida yirik mutaxassislardan biri bo'lgan Mahmudjon Jo'rayev o'zining "O'zbek xalq pedagogikasi" (Toshkent: O'zbekiston, 2007) nomli tadqiqotida xalq o'yinlarining pedagogik imkoniyatlarini chuqur yoritib bergan. Muallifning fikriga ko'ra, milliy folklor va an'anaviy bolalar o'yinlari bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat va boshqa xalqlarning madaniyatiga bag'rikeng munosabat shakllantirish imkoniyatiga ega. Shuningdek, pedagogik jarayonda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish borasida xalq og'zaki ijodi va bolalar folklorining ahamiyatiga xorijiy pedagoglar ham katta e'tibor qaratgan. Xususan, amerikalik tadqiqotchilar Dorothy Singer va Jerome Singerlarning "Handbook of Children and the Media" (Sage Publications, 2011) kitobida ko'rsatilishicha, o'yin folklori orqali bolalarda hamkorlik, tenglik va boshqa madaniyatlarga hurmatni rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida foydalanish mumkinligi asoslangan. Singerlarning fikricha, bolalar folklor o'yinlari nafaqat yosh avlodni madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi, balki jamiyatdagi tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

Xalq pedagogikasi sohasida taniqli tadqiqotchi bo'lgan Tatyana Zinkevich-Yevstigneyevaning "Igrovaya pedagogika: ot teorii k praktike" (Sankt-Peterburg: Rech, 2010) nomli ishida esa bolalar o'yinlarining pedagogik jihatlari, xususan, bag'rikenglik va boshqa ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladi. Muallif folklorik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishning metodik jihatlari ham to'xtalib, ularning boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini asoslab bergan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodi, ayniqsa bolalar folklori, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, ayniqsa o'zbek va xorijiy pedagogik-psixologik manbalar boshlang'ich ta'limda folklorik o'yinlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa yosh avlodning kelajakda bag'rikeng va insonparvar shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Hayotdagi totuvlik va inson tarbiyasining asosi, tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf-xatarlarni birgalikda yengish, yerlarni ishlashda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadosh bo'lishga intilish tuyg'usi olis ajdodlarimizni jamoa tarzida yashashga o'rgatganligi xalqimizning tarixan bag'rikeng, bir-biriga hurmat-ehtiromli ekanligini tasdiqlaydi. Bag'rikenglikni takomillashtirish, uni o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilat sifatida oilada kurtak otib, maktab va mahalla muhitida kamol topishi mumkin. Tolerantlik tushunchalarini avvalo maktabda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda bolalar o'yin folklori namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarni tolerant inson sifatida yetishtirish asosiy maqsadimiz sanaladi.

Tolerantlikni ifodalovchi muhim vositalardan biri o'zaro dialog, ya'ni muloqotdir. O'yin shartlarida esa bu vositalar bevosita mavjuddir. Bunday muloqot asosan ikki kishi – o'qituvchi va o'quvchi orasida amalga oshiriladi. Tolerantlik tarbiyasi o'quvchilarni ijtimoiy hayotda chidamlilik, bardoshlilik, o'zaro muloqot va toqatli bo'lish kabi fazilatlarga o'rgatadi.

1–4-sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini bolalar o'yin folklori vositasida shakllantirish chora-tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarni jamiyatdagi barcha din va millat vakillarining qadr-qimmatini himoya qilish tamoyillari bilan tanishtirish;
- har bir shaxs tabiat va jamiyatning noyob, takrorlanmas mo'jizasi ekanligini anglab yetishiga pedagogik ko'mak berish;
- millatlar va dinlararo ma'naviy hamda madaniy farqlanishning asosini o'zaro uyg'unlashtiruvchi tamoyil ekanligini anglash;
- hamkorlik harakatining asosi – subyekt-subyekt munosabatlarini tashkil etishga ko'maklashish.

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, ayniqsa o'zbek va xorijiy pedagogik-psixologik manbalar boshlang'ich ta'limda folklorik o'yinlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa yosh avlodning kelajakda bag'rikeng va insonparvar shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bosh-



lang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirishda bolalar o'yin folkloridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan pedagogik-eksperimental tadqiqot jarayonida samarali natijalarga erishildi. Tadqiqot davomida o'quvchilar o'rtasida olib borilgan kuzatishlar va eksperimental tadbirlar orqali xalq og'zaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlari keng tahlil qilinib, ularning tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ta'siri aniqlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni rivojlantirish jarayonida bolalar o'yin folkloridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish tashkil etadi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida kuzatuv, suhbat, savolnoma va pedagogik tajriba metodlari qo'llanildi. Kuzatuv usuli yordamida o'quvchilarning o'yin jarayonidagi ishtiroki, o'zaro muloqoti va xulq-atvoridagi o'zgarishlar muntazam qayd etildi. Suhbat usuli orqali o'quvchilarning folklor o'yinlariga bo'lgan qiziqishi, ular orqali shakllangan ijtimoiy ko'nikmalari va tolerantlikka oid qarashlari aniqlashtirildi. Savolnoma metodidan foydalanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining folklor o'yinlari orqali hamkorlik, bag'rikenglik va hurmat kabi qadriyatlarga munosabati haqida ma'lumotlar olindi. Pedagogik tajriba jarayonida esa o'quvchilarning turli folklor o'yinlarida ishtiroki ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilinib, ularning tolerantlik ko'nikmalaridagi rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, kuzatuv natijalari jadval va foiz ko'rsatkichlari yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, suhbat va savolnomalardan olingan ma'lumotlar tematik guruhlariga ajratilib, o'quvchilarning tolerantlik darajasidagi o'zgarishlar aniqlash uchun solishtirma tahlil amalga oshirildi. Natijada, bolalar folklori asosida tashkil etilgan o'yinlarning o'quvchilarda tolerantlikni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda isbotlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'quvchilar o'rtasida olib borilgan kuzatishlar va eksperimental tadbirlar orqali xalq og'zaki ijodi namunalarining pedagogik imkoniyatlari keng tahlil qilinib, ularning tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ta'siri aniqlandi. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga muntazam ravishda folklorik o'yinlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish orqali ular o'rtasida hamjihatlik, hurmat va madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo'lgan ijobiy munosabatlarning shakllanishi kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, folklorik o'yinlarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarda atrofdagilar bilan o'zaro tushunish, hamkorlik qilish va ijobiy muloqot ko'nikmalari rivojlandi. Kuzatuvlarga ko'ra, tadqiqot davridagi konflikt vaziyatlarining kamayishi va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yaxshilanishi kuzatildi.

Tajriba davomida o'quvchilar ishtirokida olib borilgan pedagogik kuzatuv va diagnostik metodlar yordamida ularning tolerantlik darajasini baholash natijalari olingan bo'lib, o'quvchilar tomonidan folklor o'yinlari orqali empatiya, hamkorlik va bag'rikenglik ko'nikmalarining rivojlanish darajasi 25 foizdan 68 foizgacha oshdi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'tkazilgan suhbat va savolnoma natijalari ham folklorik o'yinlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida madaniyatlararo hurmat va tolerant munosabatlarni shakllantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

Pedagogik tajriba jarayonida o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan intervyu natijalari ham shuni ko'rsatdiki, folklorik o'yinlar ta'lim jarayoniga integratsiyalashganda, bolalarda o'z tengdoshlariga nisbatan hurmat, xushmuomalalik va ijtimoiy javobgarlik kabi sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hayotdagi totuvlik va inson tarbiyasining asosi, tabiat qiyinchiliklarini, tashqi xavf-xatarlarni birgalikda yengish, yerlarni ishlashda kuchlarni birlashtirish, yaxshi-yomon kunlarda bir-biriga yelkadosh bo'lishga intilish tuyg'usi olis ajdodlarimizni jamoa tarzida yashashga o'rgatganligi xalqimizni tarixan bag'rikeng, bir-biriga hurmat-ehtiromli ekanligini tasdiqlaydi. Bag'rikenglikni takomillashtirish, uni o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilat sifatida oilada kurtak otib, maktab va mahalla muhitida kamol topadi.

Tolerantlik tushunchalarini avvalo maktabda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda bolalar o'yin folklori namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarni tolerant inson sifatida yetishtirish asosiy maqsadimiz sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar o'yin folklori nafaqat estetik va axloqiy tarbiyaning bir shakli, balki yosh avlod ongiga tolerantlik, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi muhim insoniy fazilatlarni singdiruvchi kuchli tarbiyaviy vositadir. O'yin orqali o'rgatilgan har bir tushuncha bolaning tabiatiga oson singadi, u hayotda bu qadriyatlarni tabiiy qabul qiladi. Shu sababli, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalar o'yin folkloridan faol foydalanish dolzarb vazifadir.



Tavsiya etiladigan xalq o'yinlari

No	O'yin nomi	Qisqa mazmuni	Tolerantlikka ta'siri
1	"Chillak"	Bolalar birgalikda nishonni urib tushiradi	Hamjihatlik, sherikni qo'llash
2	"Oq terakmi, ko'k terak"	Bolalar ikki jamoaga bo'linib kuch sinashadi	Adolatli raqobat, qoidalariga rioya
3	"Do'stlik halqasi"	Bolalar aylana bo'lib qo'l ushlashadi, yaxshi sifatlarini aytadi	Do'stlik, mehr-oqibat
4	"Sherigimni top"	Belgilar orqali sherik izlanadi	Xilma-xillikni qabul qilish, muloqot
5	"Kim tez yordam beradi?"	Bola qiyin vaziyatga tushadi, boshqalar yordam beradi	Rahmdillik, yordam berish

Xulosa qilib aytganda, xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari vodiy aholisining xo'jalik an'analari, diniy-mifologik tasavvurlari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, ular mintaqadagi etnosotsial va etnomadaniy muvozanat hamda millatlararo totuvlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, umumiy va lokal xususiyatlari orqali kishilarda insoniy fazilatlarini shakllantirish, sog'lom jismoniy muhitni ta'minlashda tamal toshlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, o'sib borayotgan avlodning tarbiya tizimida xalq pedagogikasi tajribalari, jumladan, milliy xalq o'yinlari yoshlarning xarakteri va ongini boshqaruvchi vosita, asosiy kuch deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
3. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent, 2008.
4. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. – Toshkent, 2020.
5. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent, 2008.
6. Yoqubbekova M. Axloqiy tarbiyaning ibtidosi. – Andijon: Pedagogika jamiyati, 1986.
7. Mo'minova D. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Ped. fanlar bo'yicha fals. dokt. (PhD) dis. – Namangan, 2020.
8. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo'llanma / U. I. Inoyatov, N. A. Muslimov, M. Usmonboeva, D. Inog'omova. – Toshkent: TDPU, 2012.
9. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. Tuzuvchilar: M. G. Davletshin va boshq.; mas'ul muharrir M. G. Davletshin. – Toshkent: TDPU, 1998.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
11. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
12. Tabinbaev A., Kazakov B. O'zbek xalq milliy o'yinlarining rivojlanishi, yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati, pedagogik ta'rifi va maktab dasturidagi o'rni. O'quv-metodik qo'llanma. – Nukus: Qoraqalpoq DU nashriyoti, 2015.
13. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 174.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.